

JIGARNING YOG'LI KASALLIGINI ERTA TASHXISLASH VA FIBROZ RIVOJLANISH XAVFINI BAHOLASHDA ULTRATOVUSH MEZONLARI

Haydarov Davron Akbarovich

Toshkent davlat tibbiyot universiteti, mustaqil izlanuvchi

Toshkent, O'zbekiston

Yusupaliyeva Gulnora Akmalovna

Ilmiy rahbar: professor, kafedra mudiri

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21929128>

Dolzarbligi

Metabolik disfunktsiya bilan bog'liq steatotik jigar kasalligi (MASLD) hozirgi vaqtda keng tarqalgan surunkali jigar kasalliklaridan biri bo'lib, semirish, insulin rezistentligi, 2-tur qandli diabet va boshqa metabolik buzilishlar bilan chambarchas bog'liq. Kasallikning dastlabki bosqichlari ko'pincha klinik belgilarisiz kechishi sababli jigar steatozini erta aniqlashda xavfsiz, qulay va takroriy qo'llash imkonini beradigan instrumental diagnostika usullarining ahamiyati ortib bormoqda. Ultratovush tekshiruvni nurlanish yuklamasining mavjud emasligi, keng qo'llanish imkoniyati va iqtisodiy jihatdan qulayligi sababli jigar steatozini dastlabki baholashda muhim o'rin tutadi. Biroq oddiy B-rejimdagi ultratovush tekshiruvni fibroz bosqichini aniq aniqlash imkonini bermaydi. Shu sababli ultratovush ma'lumotlarini elastografiya, klinik va laborator ko'rsatkichlar bilan birgalikda baholash maqsadga muvofiq.

Maqsadi

Jigarning yog'li kasalligiga xos asosiy ultratovush belgilarining diagnostik ahamiyatini baholash hamda ularni kompleks qo'llash orqali fibroz o'zgarishlarining rivojlanish xavfi yuqori bo'lgan bemorlarni erta aniqlash imkoniyatlarini o'rganish.

Tadqiqot materiallari va usullari

Tadqiqotga metabolik disfunktsiya bilan bog'liq steatotik jigar kasalligiga gumon qilingan, 24–67 yoshdagi 156 nafar bemor jalb qilindi. Asosiy guruhni ultratovush tekshiruvda steatoz belgilari aniqlangan 112 nafar bemor, nazorat guruhini esa yaqqol steatoz belgilari aniqlanmagan 44 nafar bemor tashkil etdi. Barcha bemorlarda jigar B-rejimdagi ultratovush tekshiruvdan o'tkazilib, parenxima exogenligi, exostrukturalari, jigar o'lchamlari, tomirlar tasvirlanishi va jigar parenximasining chuqur qismlarini vizualizatsiya qilish imkoniyati baholandi. Ko'rsatmalar mavjud bo'lgan holatlarda portal tizim Doppler tekshiruv va jigar elastografiyasi bajarildi. Shuningdek, tana massasi indeksi, uglevod va lipid almashinuvi ko'rsatkichlari, ALT, AST hamda fibroz xavfini baholash uchun FIB-4 indeksi hisobga olindi.

Tadqiqot natijalari

Asosiy guruhdagi 112 nafar bemorning barchasida turli darajadagi steatoz belgilari aniqlangan. Eng ko'p uchragan ultratovush belgisi jigar parenximasining diffuz exogenligi oshishi bo'lib, 103 (91,9%) nafar bemorda qayd etildi. Jigar chuqur qismlarida ultratovush signalining susayishi 87 (77,7%), jigar ichki tomirlar tasvirlanishining pasayishi 79 (70,5%), jigar o'lchamlarining kattalashishi esa 46 (41,1%) nafar bemorda kuzatildi. Steatoz darajasi bo'yicha yengil daraja 34 (30,4%), o'rtacha daraja 51 (45,5%) va yaqqol daraja 27 (24,1%) nafar bemorda aniqlangan. Klinik-laborator va ultratovush ko'rsatkichlari yig'indisi asosida asosiy guruhdagi 32 (28,6%) nafar bemorda fibroz o'zgarishlarining rivojlanish xavfi yuqori ekanligi aniqlandi. Steatozning ifodalanganlik darajasi, jigar qattiqligining oshishi va FIB-4 indeksi o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik kuzatildi ($p < 0,01$).

Xulosa

Ultratovush tekshiruvi jigarining steatotik o'zgarishlarini erta aniqlashda samarali, xavfsiz va qulay diagnostika usuli hisoblanadi. Jigar parenximasi exogenligining diffuz oshishi, chuqur qismlarda ultratovush signalining susayishi va jigar ichki tomirlar tasvirlanishining pasayishi steatozning asosiy ultratovush belgilarini tashkil etdi. Fibroz rivojlanish xavfini baholashda faqat B-rejimdagi ultratovush tekshiruvi bilan cheklanib qolmasdan, elastografiya, Doppler tekshiruvi va klinik-laborator ko'rsatkichlarni kompleks baholash maqsadga muvofiq. Mazkur yondashuv fibroz rivojlanish xavfi yuqori bo'lgan bemorlarni o'z vaqtida aniqlash va keyingi chuqurlashtirilgan tekshiruvga yo'naltirish imkonini beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Yevropa Jigarni o'rganish assotsiatsiyasi (EASL), Yevropa Diabetni o'rganish assotsiatsiyasi (EASD), Yevropa Semirishni o'rganish assotsiatsiyasi (EASO). Metabolik disfunksiya bilan bog'liq steatotik jigar kasalligini (MASLD) boshqarish bo'yicha klinik tavsiyalar. *Journal of Hepatology*. 2024;81(3):492–542. doi:10.1016/j.jhep.2024.04.031.
2. Yevropa Jigarni o'rganish assotsiatsiyasi (EASL). Jigar kasalliklarining og'irligi va prognozini baholashda noinvaziv testlardan foydalanish bo'yicha klinik tavsiyalar: 2021-yilgi yangilanish. *Journal of Hepatology*. 2021;75(3):659–689. doi:10.1016/j.jhep.2021.05.025.
3. Rinella M.E., Neuschwander-Tetri B.A., Siddiqiy M.S. va boshqalar. Jigarining yog'li kasalligini klinik baholash va davolash bo'yicha Amerika Jigar Kasalliklarini O'rganish Assotsiatsiyasi (AASLD) amaliy tavsiyalari. *Hepatology*. 2023;77(5):1797–1835. doi:10.1097/HEP.0000000000000323.
4. Dietrich C.F., Bamber J., Berzigotti A. va boshqalar. Jigar ultratovush elastografiyasidan klinik foydalanish bo'yicha EFSUMB tavsiyalari va ko'rsatmalari: 2017-yilgi yangilanish. *Ultraschall in der Medizin*. 2017;38(4):e16–e47. doi:10.1055/s-0043-103952.